XALQ DEPUTATLAR CHORTOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 20 - fevral VI-60-16-6-88-K/24 Chortoq tuman hokimligi

Chortoq tumani mahalliy budjetining 2024-yil boshiga erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qaroriga asosan Chortoq tuman mahalliy budjetining 2024-yil erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 4 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Chortoq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Prezidentning hududlarga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasining qaror va ko‘rsatmalari ijrosi tumanda bajarilishini inobatga olib, ushbu topshiriqlarning bajarilishi bilan bog‘liq xarajatlarning tuman budjeti hisobidan amalga oshirilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qaroriga muvofiq, Xalq Deputatlari Chortoq tuman Kengashiga taqdim etgan taklifiga asosan, tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 1-sonli ilovaga asosan **1 556 558.8 (bir millard besh yuz ellik olti million besh yuz ellik sakkiz ming sakkiz yuz) so‘m** mablag‘ tasdiqlansin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasiga taqdim etish;

ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash;

ajratilgan maqsadli mablag‘larning o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsinlar.

4. Chortoq tumani hokimining birinchi o‘rinbosari A.Umurzaqovga tumanda 2024-yil boshiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga hamda “Snos” jamg‘armasiga va boshqa tadbir xarajatlari uchun mablag‘lar yo‘naltirish yuzasidan tegishli so‘rovlar shakllantirilsin.

Chortoq tuman Mudofaa bo‘limi boshlig‘i A.Sanoyevga, tuman Mudofaa ishlari bo‘limining binosini jihozlash va joriy ta’mirlash xarajatlari uchun hamda Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati boshlig‘i D.Xamraxo‘jayevaga muassasa moddiy texnika bazasini mustahkamlash uchun mablag‘lar yo‘naltirish yuzasidan tegishli so‘rov shakllantirilsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Vaxabov)ga budjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati (F.Qambarov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Umurzaqov zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Chortoq tumani Kengashi raisi **I.Sattarov**

Xalq deputatlari Chortoq tuman Kengashining
2024-yil 20-fevraldagi
VI-60-16-6-88-K/24-son qaroriga
1-ilova

Chortoq tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdori

№	Mablag‘ oluvchi tashkilot, muassasa nomi	Mablag‘ yo‘naltirish maqsadi	Mablaғ miqdori (ming so‘mda)
1	Chortoq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 132-sonli qaroriga asosan tumandagi “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish uchun	470 578.0
2	Chortoq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-sonli qaroriga asosan tumandagi “Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘ yo‘naltirish uchun	150 000.0
3	Chortoq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi 930-sonli qaroriga asosan tuman hokimligi binosini qo‘riqlash xizmati uchun	300 000.0
4	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-118-sonli qarorga asosan DXSh loyiha ishlariga viloyat budjetidan olingan ssudadan qarzdorlikni qoplash uchun	225 480.8
5	Chortoq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-sonli qaroriga asosan snos jamg‘armasiga o‘tkazish uchun	200 000.0
6	Chortoq tuman hokimligi	Tumanda o‘rnatilgan radarlarning loyiha smeta xarajatlari uchun	23 000.0
7	Chortoq tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-dekabrdagi “Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ-2691-sonli qaroriga asosan Tuman hokimligiga moddiy tovar zaxiralari sotib olish	80 000.0

8	Chortoq tuman Kengash kotibiyati	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2023-yil 3-avgustdagi 01-22-06/1702-sonli xatiga asosan tuman Kengash kotibiyatining moddiy texnika bazasini mustahkamlash uchun	7 500.0
9	Chortoq tuman mudofaa ishlari bo‘limi	Chortoq tuman Mudofaa ishlari bo‘limining binosini jihozlash va joriy ta’mirlash xarajatlari uchun	100 000.0
	Jami yo‘naltirilgan mablag‘lar		**1 556 558.8**